



Toshkent shahar chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-sentabr dastlabki ma'lumot

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi

IV. Meta ma'lumotlar

V. Aloqador boshqa havolalar.

I. Chakana savdo tovar aylanmasi


2025-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 912 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 197 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 715 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 85 399,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 37 417,5 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 120,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 47 982,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 384,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,7 %) tashkil etdi.

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;


Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>



Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (*ulushi foizda*)




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 18 421 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 278 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 18 143 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 188 996,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 121 767,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 54,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Bektemir (2,0 m.), Uchtepa (177,7 %), Mirobod (147,5 %), Chilonzor (150,7 %) va Shayxontohur (133,8 %) tumanlarida kuzatildi.

** – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi


2025-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 5 289 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 63 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 226 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 25 498,7 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 59,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

** – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*




Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. Meta ma'lumotlar

*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi-2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.



ichki savdo – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyati. Bunday savdo ikki toifaga bo'linadi ulgurji va chakana savdo;

ulgurji savdo – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

chakana savdo – tovarlarni sotish kanallaridan qat'iy nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari : B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Ijrochi: B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Manzil: 100000, Toshkent sh. Mirobod t. Amir Temur k. 11-uy;
---	--	--	--